

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA - MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYA FAKULTETI

Himoyaga ruxsat etildi
fakul tet dekani, dotsent
_____ U.Meliboev
«_____» _____ 2015 y

Kafedra mudiri, dotsent
_____ I.Azizov
«_____» _____ 2015 y

5320900 -"Yengil sanoati mahsulotlarini konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi" (to'qimachilik sanoati) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi

Razzaqov Sherzod Qozoqjanovichning

**«Atlas yo'lli ko'ylakbop mato uchun paxta va poliefir tolali aralashmasidan ip
tayyorlash texnologiyasi» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKA ISHI

Bitiruvchi:	Sh.Razzaqov
Rahbar :	katta o'qituvchi R.A.Sodiqov
Maslahatchilar:	katta o'qituvchi R.A.Sodiqov
	katta o'qituvchi A.Akramov

NAMANGAN 2015 YIL

Mundarija

Kirish.....	4
1.Mahsulot tavsifi	7
1.1. Matonining texnik xarakteristikasi.....	7
2.Texnologik qism.....	11
2. 1. Xom ashyo tanlash va uni asoslash.....	11
2.2. Tolalarni aralashtirib ishlatishning ahamiyati	13
2.3. Paxta tolalaridan aralashma tuzish qoidalari.....	15
2.4. Ip va tolalar xossalari o'rtasidagi bog'lanish.....	16
2.4.1.Paxta va kimyoviy tolalar aralashmasidan yigiriladigan ipning xossasini loyihalash	16
2.5 Yigirish tizimi va usulini tanlash.....	18
2.5.1. Texnologik jihozlarni tanlash va ularni asoslash.....	19
2.5.2.Yigirish mashinalarining texnik tavsiflari.....	21
2.6.Yigirish rejasini tuzish.....	34
2.6.1 Ip va yarim tayyor mahsulotlarning chiziqli zichliklarini asoslash.....	34
2.6.2.Ipning pishitish darajasini aniqlash.....	37
2.6.3 Asosiy texnologik jihozlar chiqarish qismlari a`zolarining tezliklarini tanlash va asoslash.....	38
2.6.4. Mashinalarning nazariy ish unumdorligini aniklash.....	40
2.6.5 Jixozlarning unumdorlik normasi va xisobiy unumdorliklari.....	44
2.7 O'timlar bo'yicha pakovkalarni tanlash va xisoblash	45
2.8. Ip, yarim tayyor maxsulot va chiqindilarni aralashmadan chiqish miqdorlarini aniqlash.....	49
2.9.O'timlar bo'yicha soatli topshiriqlarni xisoblash va taqsimlash.....	54
2.10. Mashinalar sonini aniqlash.....	56

2.11. Yigirish rejasini qayta xisoblash.....	59
3.Mehnat muhofazasi.....	65
3.1 To'qimachilik, paxta-ipak va yengil sanoatidagi xom ashyosining yong'inxavfli bo'yicha baholash.....	65
3.2 Ut uchirishning tashki vodoprovod sistyemasi.....	70
3.3 Ut uchirishning ichki vodoprovod sistyemasi	72
4. Tashkiliy iqtisodiy qism.....	75
4.1. Yigirish korxonasi ishlab chiqarish dasturi.....	76
4.2.Xom ashyo balansi tuzish.....	77
4.3 Tugallanmagan ishlab chiqarish.....	80
4.4. Korxonaning tashkiliy texnologik ko'rsatkichlari.....	88
.Umumiy xulosalar va tavsiyalar.....	89
Foydalanilgan adabiyotlar:.....	91

Kirish

O'zbekiston Respublikasi XX-asr oxirida davlat mustaqilligiga erishgach, o'z rivojlanish yo'lini o'zgartirdi. Janubiy-Sharqiy Osiyo va jahonning bir qator rivojlangan mamlakatlari erishgan natijalarni hisobga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni o'ziga xos yo'lidan bormoqda. O'tgan yillar mobaynidagi yangilanish yo'li iqtisodiy islohotlar o'zbek modelining to'g'ri, haqqoniyligini tasdiqladi va u jahon ommasi tomonidan tan olindi.

Mamlakatimizning mustaqillik davrida respublikaning rivojlanish strategiyasi, islohatlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi ustivor yo'nalishlardan biri iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashdir. Ushbu o'zgarishlar korxonalarni yangilash va texnik qayta jihozlashga, mamlakatning boy tabiiy va mineral xom ashyo salohiyatidan to'la va samarali foylanishga, eksportga moslashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladigan quvvatlarni barpo etishga qaratilgan.[1]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik va yengil sanoati korxonalari oldida ham ularning samaradorligini oshirishda muhim vazifalar turibdi. Bu korxonalardagi samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish orqali daromadni oshirishga erishishdan iborat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, korxonalarning boshqarish taktikasi va uning strategiyasi ham o'zgardi. Muhim e'tibor korxonaning ichki ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini rejalashtirishga qaratilgan, asosiy narsa korxonada assortiment siyosatini ishlab chiqish muhim rol o'ynaydi. Chunki, assortiment siyosati bir tomondan iste'molchi ehtiyojining maksimal qondirilishi, ikkinchidan yetarli darajadagi foyda va ishlab chiqarishning samarali bo'lishini ko'zda tutadi.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mavjud bo'lgan barcha turdagi sanoat korxonalarining rivojlanishi, avvalambor iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga olib keladi. Ya'ni, bozorlarimizni yuqori sifatli, takomillashgan

texnologiya va mahsulotlar bilan to'ldirish, iqtisodimizning gullab yashnashining yagona shartidir. Respublikamiz oldida turgan asosiy masalalardan biri-ichki bozorlarimizni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish va jahon bozorlarida raqobat qila oladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishdir.

Respublikamiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirib borish natijasida uning ishlab chiqarish darajasining yaxshilanishiga olib keladi. Mahsulot sifatidan davlatning texnik takomillashgani va rivojlanganligiga baho bersa bo'ladi.

Iqtisodni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri, mahsulot sifatini sistematik ravishda oshirib borishdir. Mahsulot sifatini oshirish, assortimentlarini kengaytirish va iste'molchilar talabini qondirish hozirgi bozor iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifat darajasini ta'minlash uchun standartlar va texnik shartlarning me'yoriy talablariga bog'liq holda sistematik nazorat ishlarini olib borish lozimdir.

Bunday sharoitda barcha turdagi sanoat korxonalarini boshqarishning yangi shartlari mahsulot sifatiga yangi talablar qo'ymoqda. Bu yanada muhimroq bo'lib, to'qimachilik mahsulotlari aholining doimo o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Undan tashqari, har bir yo'nalish, har bir sanoat korxonalari ishlab chiqarishdagi yangilanishning aniq yo'liga ega bo'lishi lozim. Mahsulot sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, mahsulotni dunyo bozorlariga chiqarishni ta'minlaydi [2].

2015-yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AqSh dollari hisobida 15 milliard 960 milliondollarini yoki 2014-yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga yetadi. Ushbu mablaflarning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish obektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib,

ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payadi. [3].

Ma'lumki, O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko'p marotaba boshidan kechirgan. Shu bilan birga, to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o'zlashtirish asosida, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz. Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko'plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin. Bu o'rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo'lgan tayyor to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardoqlash materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda.

To'qimachilik sanoatini rivojlanishi ko'p jihatdan joriy etilgan texnologiya va o'rnatilgan jihozlarning texnik imkoniyatlariga bog'liq. Talab darajasidagi gazlama va buyumlar ishlab chiqarish uchun sifatli xom ashyodan sifatli ip yigirish texnologiyasini to'g'ri tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi. Xar qanday sharoitda loyihalalanayotgan va qayta jihozlanayotgan korxonadan olinadigan iqtisodiy va boshqa samaraning yukori bo'lishini ko'zlash kerak. Ilg'or, serunum texnologiyada ishlab chiqariladigan iplarning tannarxi arzon, mehnat sarfi kam talab qilishini kerak. Bunga erishish uchun qabul qilingan mashinalar serunum, ixcham bo'lishi, elektr

energiyani kam iste'mol qilishi, kam mehnat talab qilishi, texnologik jarayonlar, ip yigirish rejalari muqobil tuzilishi, pakovkalar sig'imini oshirish, mashinalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash, aralashmadan ip chiqishini oshirish, chiqindilar va uzilishlar miqdorini kamaytirish lozim. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot – ip va ip mahsulotlari har tomonlama haridorgir, raqobatbardosh bo'lmog'i kerak.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, men bitiruv malakaviy ishimda «Alpiyskaya»-matosi uchun ip yigirish korxonasini texnologik loyixalashni maqsad qilib oldim.

1. Mahsulot tavsifi

1.1. Matoning texnik xarakteristikasi.

Gazlamalarning assortimenti juda xilma xildir. Gazlamalarning mavjud assortimenti doimo o'zgarib turadi. Modadan qolgan, iste'moldan chiqqan, eski artikullardagi gazlamalarni ishlab chiqarish to'xtatiladi. Tola tarkibi, tuzilishi, pardozi va xossalari jixatidan yangi gazlamalar yaratish xisobiga assortiment yangilanib boradi. Ip gazlamalar maishiy va texnik xillarga bo'linadi. Maishiy ip gazlamalar assortimentining katta qismini tashkil qiladi.

To'qimachilik sanoatida barcha iplarni ishlab chiqarish usuliga ko'ra tolalardan yigirilgan va kimyoviy usulda tayyorlangan xillarga bo'linadi. Tuzilishiga ko'ra esa iplarni birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratiladi. Birlamchi iplar hosil qilingandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri mato tayyorlash uchun yuboriladi. Ularni yigirilgan, kimyoviy kompleks, monoiplar, qirqib tayyorlangan iplarga bo'linadi. Ikkilamchi iplar belgilangan tashqi ko'rinish va xususiyatlarga ega bo'lishi uchun bir nechta birlamchi iplarni qo'shib, so'ngra ularni birgalikda eshib-pishitib olinadi.

Yigirilgan iplar xom ashyo tarkibiga ko'ra bir xil va aralashma iplariga bo'linadi. Biron turdagi tabiiy yoki kimyoviy tolalardan yigirilgan iplarni bir xil, turli tolalarni aralashmasidan yigirilgan iplarni esa aralashma iplar deb yuritiladi. Aralashma iplar tabiiy tolalardan birini biron turdagi kimyoviy tola bilan yoki turli kimyoviy tolalarni aralashtirishdan so'ng yigirib olinadi. Iplarning fizik, mexanik

va boshqa xossalari ko'plab ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ulardan bir nechta asosiy xossalari sifatida belgilangan. Bular jumlasiga uzilish kuchi, nisbiy uzilish kuchi, uzilishdagi uzayishi, pishitilishi, tozaligi, nuqsonlar soni, notekisligi kiradi. Ikkilamchi iplar belgilangan tashqi ko'rinish va xususiyatlarga ega bo'lishi uchun bir nechta birlamchi iplarni qo'shib, so'ngra ularni birgalikda eshib-pishitib olinadi. Ayrim hollarda iplarni qo'shilgandan keyin pishitmasdan ham ishlatilishi mumkin. Bunday ikkilamchi iplarni qo'shilgan iplar deb ataladi. Qo'shilgan iplar bir nechta yakka iplarni bir xil taranglikda birgalikda qayta o'rab hosil qilanadi. Ularni yumshoq, momiq matolar tayyorlashda ishlatiladi.

Bo'yalishi jihatidan ip gazlamalar xom, oqartirilgan, sidirg'a, melanj, mulinirlangan, guldor va gul bosilgan xillarga bo'linadi. Yuvilib ketmaydigan appertli, g'ijimlanmaydigan va kirishmaydigan qilib pardoziqlangan ip gazlamalar ishlab chiqarish yildan yilga ko'paymoqda.

Ishlatiladigan kalava ipning hiliga qarab ip gazlamalar quyidagi xillarga bo'linadi: qayta tarash usulida yigirilgan kalava ipdan to'qilgan ip gazlama; turli usulda yigirilgan iplarni qo'shib, karda-qayta tarash va karda apparat usullarida to'qilgan gazlamalar.

Bitiruv malakaviy ishimizda atlas yo'lli ko'ylak bop paxta va lavsan tolalardan ishlab chiqarilgan «Alpiyskaya» mato uchun ip ishlab chiqarishni loyixalashimiz lozim. Bu mato shoyi matolar turkumiga kirib paxta va lavsan tolasidan ishlab chiqarilgan iplardan to'qiladi. Shoyi matolar assortimentini asosan ko'ylak bop matolar tashkil qiladi. Lekin kuylak bop matolar bilan birgalikda kostyum bop, pal toli, mebel va boshqa turdagi matolar ham ishlab chiqariladi. Kuylak bop matolar turkimiga asosan polotno, sarja, shotlandka va kuylak-kostyum matolari kiradi.

Shtapel matosi tuzilishi buyicha me'yorlashgan nozich tanda iplari ko'proq bo'lgan polotnoli urilishdagi matodir. Matoni ishlab chiqarishda ikki variantdagi yakka va pishitilgan iplar qo'llanadi. Birinchisi yengil matolar tanda va arqoq

buyicha yakka ipdan yoki tanda buyicha pishitilgan va arqoq buyicha yakka chiziqli zichligi 18.5-25 teks ipdan, og'irligi 1m^2 100-150 gr bo'lgan matolar. Ikkinchisi esa og'ir- tanda va arqoqda pishitilgan 25-29.4 teks X 2 , og'irligi 1m^2 180-240 gr bo'lgan matolar. Matolar asosan kengligi, qalinligi va tuzilishi, zichligi va 1m^2 mato og'irligi bilan farq ilishadi. Shoyi matolar turli-tuman chiqaziladi va ularga yaxshi turli formadagi gullar bosish mumkin. Matolar yuvilganda yengil tozalanadi, tez oson dazmol bosiladi va chiroyli tashki kurinishga ega bo'ladilar.

1301 artikulidagi atlas yo'lli «Alpiyskaya » kuylak bob matosi paxta va lavsan tolalar aralashmasidan tayyorlangan to'qimalar turkumiga mansub bo'lib aksariyat 101.8sm enda ishlab chiqarilgan. Alpiyskaya matosi uchun 15,4teks x 2 paxta va lavsan tolasi aralashmasidan tanda va 29 teksli paxta va lavsan tolasi aralashmasidan arqoq iplaridan foydalanadi. Tanda va arqoq iplari polotnoli urilishida matoni shakllantiriladi.

Mato tanda bo'yicha zichligi $R_t = 246$ ip 10sm arqoq bo'yicha zichligi esa $R_a = 190$ ip 10sm tashkil etadi. To'qimani tanda bo'yicha zichligi nisbatan yuqori bo'lganligi uchun to'qima tanda bo'yicha pishiq xisoblanadi. Eni 101,8sm bo'lgan Alpiyskaya kuylak bob matosini ishlab chiqarish uchun 2512ta tanda iplari talab etiladi. Matoni ishlab chiqarishda tanda iplari qisqarishi 6.5% matoni tanda bo'yicha zichligi yuqori bo'lganligi uchun arqoq bo'yicha qisqarishi 5.2% .

Ma'lumotnomada [4] Alpiyskaya kuylak bob matosi STB to'quv dastgoxida ishlab chiqarish tavsiya etilgan. Ko'ylakbob matosini sirt zichligi $140\text{grg}'\text{m}^2$ bo'lganligi uchun yengil to'qimalar turkumiga kiradi. Eni 101.84sm bo'lgan 100 pogonometr to'qima ishlab chiqarish uchun 8,123 kg tanda iplari 5.910kg arqoq iplari sarflanadi.

Bitiruv malakaviy ishimda 1301 kuylak bop matosining texnik tavsiflari 1 jadvalda keltirilgan.

Matoning texnik xarakteristikalari

1 -jadval

Matoning atamasi	Arti kul no meri	Ma to ning eni, sm	Ipning chiziqli zichligi, teks			Iplar soni		10 sm matodagi iplar soni		Urabotka	
			Tanda	Arqoq	Mato qir- g'og'i	Jami	Mato qirg'og'ida gi iplar soni	R ₀	R _u	α_0	α_u
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Atlas yo'lli «Alpiyskaya» paxta lavsan matosi	1301	101.8	15.4x2 33% VPef	29 33% VPef	15.4x2	2512	36	246	190	6.5	5.2

davomi

Matoning atamasi	Tig'ng tishlari soni			To'qi lish rusu mi	To'quv dastgoxi ning turi	Matoning yuza zichligi, g/m ²	Chiqindi miqdori, %		100 pog.metr xom to'qimaga sarflan gan ip chiqindisiz miqdori, kg	
	nomeri	Tishdagi iplar soni					Tanda bo'yicha	Arqoq bo'yi cha		
		Fon	Qir g'oq							
	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
Atlas yo'lli «Alpiyskaya» paxta lavsan matosi	100	2.4	4	polotn oli	STB	140	1,9	0,49	8.123	5.910

[4] 492bet

2. Texnologik kism

2.1. Xom ashyo tanlash va uni asoslash.

Loyihalanadigan korxonada ma'lum yo'g'onlikdagi ip ishlab chiqarish uchun to'g'ri tola tanlash katta ahamiyatga ega. Yigiriladigan ip tannarxining 70-85 % ini tolaning narxi tashkil qiladi. Tolalarning turlari bo'yicha narxlari ham xar xil bo'ladi. Bundan tashqari hamma paxta navlarini ham bir birlari bilan aralashtirib bo'lmaydi, chunki ularning xossalari xar xil bo'ladi. Demak, loyixaning eng asosiy qismlaridan biri bu tolaning to'g'ri tanlanishi hisoblanadi.

Ipning fizik-mexanik xossalari

2 -jadval

Ipni chiziqli zichligi, teks	Konditsion chiziqli zichlik va nominal chiziqli zichlik orasidagi ruxsat etilgan farq, %	Navi	Nisbiy pishqlik		Pishqlik bo'yicha variatsiya koeffitsienti, %	Chiziqli zichligi bo'yicha variatsiya koeffitsienti, %	Pishiti sh koeffitsienti, α
			sN/ teks	Gs/ teks			
15.4x2	+2 -2,5	Bir Ikki Uch	15.9 14.8 13.4	16.2 15.1 13.7	8.8 11.2 13.1	1.8 1.35 1.04	47.6
15-17 33% VPef	+2.0 -2.5	Bir Ikki uch	11.0 9.9 8.8	11.2 10.1 9.0	16.0 17.0 18.5	0.70 0.59 0.49	
29 33% VPef	+2.0 -2.5	Bir Ikki uch	11.3 10.6 9.8	11.5 10.8 10	15.0 16.5 18.0	0.77 0.65 0.55	

[5] 11bet

Ipning sifati va fizik-mexanik ko'rsatkichlari tanlab olingan tolaning xossalariiga bevosita bog'liq. Tola qanchalik sifatli bo'lsa, undan olingan ip shuncha sifatli bo'ladi. Lekin o'rtacha yo'g'onlikdagi ip olish uchun yuqori navdagi paxta tolasini qabul qilinsa, ipning sifati yaxshi, ammo tan narxi baland bo'ladi. Shuning uchun ma'lum yo'g'onlikdagi ip olish uchun shunday tola tanlash kerakki, ishlab chiqarilgan ipning sifat ko'rsatkichlari standartlar talabiga to'liq

javob bergani holda tannarx arzon bo'lsin. Tola tarkibini tanlashda aralashma qilib ishlanishi ko'zda tutiladi. Ip yigirishda tolaning tarkibini tanlash iplarga qo'yilgan talablarga bog'liq bo'ladi, chunki iplar qanday maqsadda ishlatilishiga qarab xar xil talablar qo'yiladi.

Iplar qanday maqsadda ishlatilishiga qarab, tolaning tarkibiga xar xil talablar qo'yiladi.

Xom ashyo tanlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Tipovoy sortirovkalar asosida aralashmaplar tarkibini tuzish.

2. Tipovoy sortirovkalar tanlash.

3. Tolalarni selektsiya navlarini tanlash va asoslash.

4. Aralashma tarkibini ip sifatiga qo'yilgan talablarni qondira olishini tekshirish

Loyihada qabul qilingan mahsulot turi va ipning sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq ip yigiriladigan tolaning turi va aralashma tarkibi tanlanadi. Qo'yilgan talab darajasidagi ip yigirish uchun ishlatiladigan tolalar aralashmasi sortirovka deb yuritiladi. Ip yigirish usuli va belgilangan maqsadda ishlatilishiga qarab, xar bir turdagi paxta tolasi uchun tipovoy sortirovkalar tuzilgan. Quyidagi 3-jadvalda iplarini yigirish uchun tipovoy sortirovka keltirilgan.

Tiplar bo'yicha saralanma tuzish

3 -jadval

Ipning nominal chiziqli zichligi, teks	Ipning nominal nomeri	Tipli saralash	Izox
15.4teks	65	5- I- 67% Poliefir-33%	
29teks	34	5- I 67% Poliefir-33%	

To'qimachilik mahsulotlarining aksari paxta tolasidan olinishini hisobga olgan holda ushbu turdagi aralashmalarni tanlashni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Chiziqli zichligi 15.4teks x2 tanda va 29 teks arqoq iplarini yigirish uchun paxta va lavsan tolalarining selektsion navlarini [10] adabiyotdan foydalanib tanlaymiz va u quyidagi 4 va 5-jadvalda keltirilgan.

Tolalarning sifat ko'rsatkichlari

4 -jadval

Paxta tolalarning tipi	Selektsion navi	Terim turi	Sanoat navi	Namligi, %	Shtapel uzunligi, mm	Variatsiya koeffitsienti	Chiziqli zichligi, mTeks	Etilganlik koeffitsienti	Uzilish kuchi, sN	Nisbiy uzilish kuchi, sN/teks	Iflosligi
	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
5	Namangan	qo'lda	I	5,4	33,3	-	171	2	4,5	25,7	2,1

Kimyoviy tolalarning fizik-mexanik xossalari

5-jadval

Tlasining tipi	Navi	Nominal chiziqli zichligi, mTeks	Og'ish %	Nisbiy uzilish kuchi, sN/teks	Uzilishdagi uzayish, %	Tola uzunligi, mm	Namligi, %
Poliefir	1	170	+5 -5	36	50	35-38	2

2.2. Tolalarni aralashtirib ishlatishning ahamiyati

To'qimachilik sanoatida to'qimalar va matolar tayyorlashda dastgoxlarining katta tezlikda ishlashi va sifatga qo'yilgan talablarni tobora kuchayib borayotganligi ipning xossalari, jumladan bir tekisda bo'lishga e'tiborni kuchaytirishni talab etadi. Notekislik o'z navbatida ip uzilishi va sifatni buzilishiga olib keladi. Bunday notekislikni kamaytirishda asosiy omili ipning tarkibidagi turli nav va turdagi tolalarni mahsulot hajmi bo'yicha bir xilda va bir

xil zichlikda taqsimlanishini talab etadi. Shuning uchun tolalarni aralashtirish jarayoni muxim bosqich hisoblanadi.

Tolalarni aralashtirishga esa sabab bo'ladigan omillar ko'p. Masalan paxta tolasidan ip yigirishda turli sanoat naviga mansub tolalar aralashma tannarxini arzonlashtirish maqsadida tuzilsa, korxonada hosil bo'lgan qaytimlarni aralashmaga qo'shib ishlatish ham zarurat hisoblanadi. Ayrim hollarda esa mahsulotga o'ziga xos sifatni berish uchun paxta va kimyoviy tolalar, yoki turli kimyoviy tolalar aralashmasidan ip olinadi. Shunday qilib **aralashtirish jarayoning maqsadi** me'yorlangan sifatga ega bo'lgan va belgilangan tannarxdagi ip olish uchun aralashmaga kiritiladigan tolalarni tarkibiy ulushlariga muvofiq bir tekisda taqsimlanishini ta'minlash.

Aralashtirish jarayonining mohiyati turli sifat va xossaga bo'lgan tolalarni aralashma tashkil etuvchilari ichida va ularni butun aralashmada bir xilda taqsimlashdan iborat.

Ip yigirishda tolalarni aralashtirishni tashkil etilmagan (tartibsiz) va tashkil etilgan usullaridan foydalaniladi.

Tashkil etilmagan usulda tolalar bo'lakchalari tartibsiz harakatda bo'ladi va tasodifiy tartibda qayta taqsimlanadi. Bunda aralashmani ixtiyoriy qismida turli tashkil etuvchilar me'yordan juda kam farq qiladi. Bu usul aralashtirish kameralarida ignali panjaralar ta'sirida aylanishi yoki to'rtli baraban sirtida tolalarni to'planishida, pnevmotransportlarda amalga oshiriladi.

Tashkil etilgan usulda oqimlar, qatlamlar, yarim mahsulotlar (pilta, pilik) qo'shib tolalar soni bir xilda taqsimlanadi. Bu usul sifati va tuzilishi turli xil tolalarni aralashtirib ishlashda qo'llaniladi. Aralashtirish panjaralarda, piltalash, pilta qo'shish, pilik yoki yigirish mashinalarida amalga oshirilishi mumkin. Belgilangan talabga javob beruvchi aralashma olish uchun turli mashina va moslamalar, o'timlar tashkil etiladi. Yuqorida keltirilganlarga asosan, aralashtirish yigirish korxonasining dastlabki bosqichidan oxirigacha amalga oshirish mumkinligi ko'rinadi.

2.3. Paxta tolalaridan aralashma tuzish qoidalari

Odatda ip yigiruv korxonasining yigirish tizimiga, yigirish usuliga, olinadigan iplarning chiziqli zichligi (nomeriga) va eng muhimi ipni qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tolalar aralashmasining tarkibi tanlanadi.

Gazlama to'qish uchun mo'ljallangan iplar o'z navbatida tanda ipi va arkok ipiga bo'linadi. Tanda ipi gazlamaning asosini tashkil qiladi va bo'ylamasiga yo'nalgan bo'lgani uchun ko'p kuchlanishlarga duch keladi. Arqoq ipi esa gazlamaning eni bo'ylab yo'naladi va unga kuchlanishlar nisbatan kamroq ta'sir etadi. Shuning uchun odatda, tanda ipi yuqori sifatli paxtadan yigiriladi. Shuni xam aytish kerakki, ingichka (yukori nomerli) iplar olish uchun uzun tolali paxta, o'rtacha chiziqli zichlikdagi iplar olish uchun o'rta tolali paxta, yo'g'on iplar olish uchun esa past navli paxta tolalari bilan birga, yigiruv korxonasi chiqindilarini ham aralashtirib ishlatiladi. Bu esa tolani tejab, ipning tannarxini arzonlashtirib, kata iqtisodiy samara olishga imkon beradi. Demak, ma'lum chiziqli zichlikdagi tanda tanda va arqoq ipoarini yigirib olish uchun paxta tolasidan turlicha aralashma tuzish lozim.

Ip yigirish uchun tanlangan paxta tolalarining fizik mexanikaviy xossalari bo'yicha farqlari ma'lum oraliqda bo'lishi kerak. Odatda, ushbu farqlarni keskin bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Paxta tolalarini aralashmaga tanlashda quyidagi qoidalarga albatta rioya kilish kerak:

1. Aralashma tarkibida eng kamida 24 ta toy paxta bo'lish kerak.
2. Aralashmaga kiradigan tolalarning uzunligi bo'yicha farqi 1-2 mm dan oshmasligi kerak.
3. Aralashmaga kiradigan tolalarning chiziqli zichligi bir-biriga juda yaqin bo'lishi kerak.
4. Aralashma tarkibiga paxtaning yonma-yon turgan sanoat navlari tanlanishi kerak.

5. Aralashmaga eng kamida ikkita paxta zavodining paxtasidan 6-8 ta markada tanlash kerak.

Mana shu qoidalar bajarilganda bir xil xossali aralashma olinadi. Bir xil xossali aralashmadan yuqori sifatli ip olish oson.

Ip yigiruv korxonalarida ma'lum chiziqli zichlikdagi ip yigirib olish uchun tipoviy sortirovkadan foydalaniladi. Tipaviy aralashmalar ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, paxta tiplari asosida tuzilgan.

6-jadval

Tipli saralash	Aralashma tarkibi, %
Tanda 15,4 teks x 2 Arqoq 29teks	67 % 5-I paxta tolasi 33% poliefir tolasi

2.4. Ip va tolalar xossalari o'rtasidagi bog'lanish

Ipning kutilgan sifatga ega bo'lishi bilan bir qatorda uning tan narxini ham to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yigirish korxonalarida rejalashtirilgan iplarni talab qilingan sifatda bo'lishini ta'minlash uchun birinchi navbatda toladan yigiriladigan ipning xossalarini nazariy yo'l bilan loyixalanadi. Buning uchun ipning nisbiy uzilish kuchini formulalar orqali hisoblash usuli ko'proq qo'llaniladi. Hisoblash tolalar aralashmasini to'g'ri tanlashni tezlatish bilan bir qatorda ko'p miqdordagi tolani saqlab qolishga imkon beradi.

2.4.1. Paxta va kimyoviy tolalar aralashmasidan yigiriladigan ipning xossasini loyihalash.

Kimyoviy (sintetik) va paxta tolalarning aralashmasidan yigiriladigan ipning nisbiy uzilish kuchini A.N.Vanchikov taklif etgan formula orqali aniqlanadi. Bu formulaning umumiy ko'rinishi quyidagicha

$$\text{Tanda ipi uchun } R_{ar} = R_{o'r.ar} \cdot K_{ar} = 32,8 \cdot 0,344 = 11,3 sH / teks$$

$$\text{Arqoq ipi uchun } R_{ar} = R_{o'r.ar} \cdot K_{ar} = 32,8 \cdot 0,40 = 13,1 sH / teks$$

Bu yerda: R_{ar} – paxta va kimyoviy tolalardan olingan ipning nisbiy pishiqligi sNg'teks.;

$R_{t.ar}$ – aralashmadagi tolalarning o'rtacha nisbiy pishiqligi, sNg'teks;

K_{ar} - aralashmadagi tolalarning pishiqligi koeffitsienti;

K_{ar} – quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

Tanda ipi uchun $K_{ar} = K_1 - a \cdot \beta_2 + b \cdot \beta_2^2 = 0,455 - 0,53 \cdot 0,33 + 0,59 \cdot 0,33^2 = 0,344$

Arqoq ipi uchun $K_{ar} = K_1 - a \cdot \beta_2 + b \cdot \beta_2^2 = 0,519 - 0,53 \cdot 0,33 + 0,59 \cdot 0,33^2 = 0,40$

Bu yerda: K_1 – kam cho'zuluvchan tolaning pishiqligi bo'yicha koeffitsienti

β_2 - cho'zuluvchan komponentning ulushi, %.

β_2^2 – ko'p cho'zuluvchan komponentning ulushi, %.

a va b – koeffitsientlar, bu koeffitsientlar quyidagicha aniqlanadi.

$$a = 1 - \sqrt{\xi_1 / \xi_2} = 1 - \sqrt{\frac{8}{35}} = 1 - 0,47 = 0,53$$

$$b = a \cdot \sqrt{T_{T1} / T_{T2}} \cdot \eta = 0,53 \cdot \sqrt{\frac{0,18}{0,17}} \cdot 1 = 0,59$$

Kam cho'zuluvchan tolaning pishiqligi bo'yicha koeffitsienti K_1 ni aniqlaymiz:

Tanda ipi uchun $K_1 = (0,813 - 2,65 / \sqrt{T_{ip} / T_t}) \cdot (1 - 5 / L_{sht}) =$
 $(0,813 - 2,65 / \sqrt{15,4 / 0,171}) \cdot (1 - 5 / 33,3) = 0,455$

Arqoq ipi uchun $K_1 = (0,813 - 2,65 / \sqrt{T_{ip} / T_t}) \cdot (1 - 5 / L_{sht}) =$
 $(0,813 - 2,65 / \sqrt{29 / 0,171}) \cdot (1 - 5 / 33,3) = 0,519$

Bu yerda:

ξ_1, ξ_2 - komponentlarning nisbiy cho'zuvchanligi.

T_{T1} - kamroq cho'zuluvchan tolaning chiziqli zichligi, teks,

T_{T2} - ko'prok cho'zuluvchan tolaning chiziqli zichligi, teks.

η - tolaning struktura xususiyatlariga bog'liq koeffitsient.

$\eta = 1,1$ - bo'lishi mumkin, qachonki paxta tolasi viskoza tolasi bilan aralashtirilgan bo'lsa.

$\eta = 1$ - bo'lishi mumkin, qachonki paxta sintetik tolalar bilan aralashtirilgan bo'lsa.

$\eta = 0,8$ - bo'lishi mumkin, qachonki viskoza sintetik tolalar bilan aralashtirilgan bo'lsa.

$\eta = 0,6$ - bo'lishi mumkin, qachonki viskoza bilan nitron aralashtirilgan bo'lsa.

Xulosa: Bitiruv malakaviy ishimda tegishli formulalar yordamida ipning nisbiy uzilish kuchini aniqlab ip sifatiga qo'yilgan talab bilan solishtirish natijasida biz tanlagan aralashmaning shu varianti bizni qoniktiradi.

2.5. Yigirish tizimini va usulini tanlash

Paxta va kimyoviy tolalarni yigirishda qo'llaniladigan texnologik jihozlar va jarayonlarda tolalardan ip hosil qilish ketma-ketligini yigirish tizimi deb atash qabul qilingan. Bunda yigirish tizimi tushunchasi faqat jarayonlar ketma-ketliginigina emas, balki texnologik jihozlar turi va ularni yigirish korxonalarida o'rnatish tartibini ham o'z ichiga oladi.

Paxta va kimyoviy tolalardan ip yigirishning quyidagi asosiy tizimlari mavjud:

- karda (oddiy) tizimi;
- qayta tarash tizimi;
- apparat tizimi;
- melanj tizimi.

Bu tizimlar asosan ikkita belgilovchi alomatlari – tarash usuli va mahsulotni ingichkalashtirish usullari bilan farqlanadi.

Agar paxta tolalarini tarash shlyapkali mashinalarda bajarilib, mahsulotlarni ingichkalashda piltalash, piliklash mashinalari qo'llanilsa, bunday sistema karda (oddiy) yigirish sistemasi deb ataladi.

Karda sistemasida o'rtacha yo'g'onlikdagi ip olinadi. Agar olinadigan ip ingichka, pishiqroq, tekis va silliq bo'lishi talab etilsa, qayta tarash sistemasi qo'llaniladi. Bu sistemada tarash jarayoni nafaqat tarash mashinalarida, balki qo'shimcha qayta tarash mashinalarida ham bajariladi. Mahsulotni ingichkalash bu sistemada ham cho'zish asboblariida bajariladi. Ishlab chiqarilgan ipning tannarxi, karda sistemasida olingan ipning tannarxidan yuqori bo'ladi. Chunki

qayta tarash sistemasida ingichka tolali paxta ishlatiladi; bu sistema ipning sifati va xossalariga talablar juda yuqori bo'lgandagina qo'llaniladi. Qayta tarash iplari odatda tikuv iplari, texnik to'qimalar, ayrim hollarda trikotaj to'qimalari uchun ishlatiladi.

Apparat sistemasi, tarash va mahsulotni ingichkalash usullari bilan boshqa yigirish sistemalaridan farq qiladi. Bunda tarash tarkibida valikli tarash mashinalari bo'lgan ikki karra, uch karra tarash apparatlarida tolani ikki marta yoki uch marta tarash uchun mo'ljallangan. Mahsulotni ingichkalash oxirgi tarash mashinalariga tutashtirilgan piliklash karetkalarda o'rnatilgan tasmalar yordamida taramni ingichka bo'lakchalarga ajratuvchi maxsus moslama yordamida bajariladi. Bu moslamada taram ingichka tasmachalarga ajratilib, ularni bo'ylamasiga yumalatib pishitib pilik olinadi. Pilik yigirish mashinalarida yigirilib, undan yo'g'on paxmoq ip olinadi.

Men bitiruv malakaviy ishimda Respublikamizdagi ko'plab to'qimachilik korxonalarida samarali ishlab kelayotgan, komp yuterlashtirilgan, yuqori sifat va unumdorlikka ega «Trutzchler» firmasi jihozlarida marlya uchun ip yigirish texnologiyasini loyixalashda oddiy yigiruv tizimini qabul qilib oldim.

2.5.1. Texnologik jihozlarni tanlash va ularni asoslash.

Ip yigirish tizimini tanlaganda, yigiriladigan ipga qo'yilgan talablarga qarab, yigirish o'timlari, usullari aniqlanadi. Ip olishda karda, qayta tarash va apparat sistemalaridan biri, halkali yoki pnevmomexanik usulda ishlaydigan yigirish mashinalari tanlanadi. Yigirish uchun tanlangan usullarga qarab mashinalar tarkibi aniqlandi va har bir tanlangan mashinalar atroflicha asoslanib, ularning texnik tavsiflari keltirildi. Bitiruv malakaviy ishida tanlangan har bir rusumdagi mashinaga tushuncha berildi. Bunda mashinalarning qaysi firma ishlab chiqarilganligi, bu mashinalar birorta fabrikada qo'llangan bo'lsa, qanday ko'rsatkichlar bilan ishlayotganligi va boshqa mashinalardan qanday afzalliklari

borligi ko'rsatildi. Mashinalarni tanlashda fan taraqqiyoti, texnika va texnologiyaning rivojlanish yo'nalishlarini yaxshi tahlil qilib asoslandi.

Mashinalarni tanlashda hozirgi zamondagi fabrikalarda qo'llanadigan o'ramlar o'lchami katta bo'lishi ham nazarda tutildi. Shunday qilinmasa, mehnat unumdorligi past bo'ladi. Shu bilan birga, shunday mexanizm va moslamalarni qabul qilindiki, ularni qo'llash natijasida mehnat sharoiti yaxshilandi va mashinalarning ish unumdorligi yuqori bo'lishligi e'tiborga olindi. Tanlangan mashinalardagi cho'zish asbobining turlari, urchuqlarning tiplari, halka va yugurdaklarni, ta'minlash ramkalarini, markaziy moylash sistemalarini, mashinalarni avtomatik to'xtatish va yurgizish moslamalarini, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mashinalardan avtomatik ravishda olish va shaylashni shunday tanlandiki, natijada qo'l mehnati kamaydi, mashinalarning uzluksiz ishlashi ta'minlandi. Qabul qilingan mashinalar yuqori sifatli butlovchi materiallar (ustki valiklarni qoplash uchun elastik rezinalar, tarash mashinasining barabanlariga qoplash uchun garnituralar, katta diametrli tazlar, g'altaklar va boshqalar) bilan ta'minlanishi e'tiborga olindi.

Piliklash mashinasi va yigirish mashinalari uchun chang so'rg'ich va chang puflagich moslamalarini qabul qilindi. Loyihalanayotgan korxona chiqindi tolalarni ajratib yig'uvchi va changsizlantiruvchi sistema bilan ta'minlanishi e'tibordan chetda qolmadi.

Yangi yigirish korxonalarini loyihalash va ko'rish, mavjud korxonalarni qayta jihozlashning asosi jihozlar va mashinalarning yuqori unumdorligini, xom ashyodan unumli foydalanishni, yuqori sifatli ip yigirishni ta'minlaydigan ilg'or texnika va texnologiyani joriy etishdan iboratdir. Yigirish texnikasi va texnologiyasi jadal suratlar bilan rivojlanmoqda. Bunday holat yangidan quriladigan korxonalarning jihozlari taraqqiyotning borishiga mos ravishda tanlanishini va mavjud korxonalarni qaytadan jihozlashni taqoza etadi. Bundan ko'rinib turibdiki kurs ishida qabul qilinadigan jihozlar korxonaning yaqin

kelajakda yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ishlay olishini, qo'shimcha sarf xarajatlarni imkoni boricha kamroq sarflashni ta'minlashi lozim.

Har bir mashinaning afzallik va kamchilik tomonlarini alohida va o'zaro bog'lash natijasida uni tanlandi va asoslandi.

2.5.2.Yigirish mashinalarining texnik tavsiflari.

Ip yigirish mashinalari yildan-yilga takomillashib, avtomatlashib bormoqda. Ushbu takomillashtirish natijasida pnevmomexanik usulda ip yigirish mashinalari yaratilda va yillar davomida takomillashtirib kelinmoqda.

Bitiruv malaka ishimizda Olmoniyaning «Trutzchler» firmasining tolalarga katta zarbiy kuch bermasdan toy titish va tolalarni nuqsonlardan tozalashning bir necha bosqichli jihozlaridan foydalanildi. (7–jadval)

7-jadval

№	Texnologik jarayondagi jixozlar	Jixozlar markasi	
		Lavsan tolasi uchun	paxta tolasi uchun
1	Avtomatik toy titgich	BO-A	BO-A
2	Ko'p funktsiyali ajratkich (separator)	SP-MF	SP-MF
3	Kimyoviy tola uchun kamerali tola aralashtirgich tozalovchisiz	MX-U	MX-U
4	Ta'minlovchi tortuvchi	BL-HW	BL-HW
5	Paxta va kimyoviy tolalarni kamerali tola aralashtirgich va tituvchi TUFTOMAT i bilan	MX-I 6 va TO-T 1	MX-I 6 va TO-T 1
6	Chiqindi va qaytimlarni qayta ishlash	BO-R	BO-R
7	Tarash mashinasi	TC-11S	TC-11
8	Pitalash mashinasi 1-o'tim	TD-7	TD-7
9	Pitalash mashinasi 2-o'tim	TD-7	
10	Pitalash mashinasi 3-o'tim	TD-8	
11	Piliklash mashinasi	Roving frame F 35	
13	Ip yigirish	G-35	
14	Qayta o'rash	Autokoner X5	
15	Qo'shib o'rash mashinasi	TUAN-BL	
16	Pishitish mashinasi	VTS-08	

Avtomatik toy titgich BLENDOMAT BO-A

Trutzschler firmasining toy titgichlari qo'lda ta'minlashga yoki avtomatik rashivda toylarni titishga mo'ljallangan. Avtomatik toy titgichlar BLENDOMAT BO-A tolalarga shikast yetkazmasdan titish jarayonini amalga oshirib beradi. Uning unimdorligi 1500 kg/soatgacha .

Toy titgichlar paxta va kimyoviy tolalarni titishga mo'ljallangan. Bir paytning o'zida uch xil tolani titib berishga moslashtirilgan. Stavkadagi toylarning soni 180 tagacha bo'lishi mumkin. Birdaniga uchta tozalash liniyasidagi mashinalarga maxsulot yetkazib beradi. Shu bilan birga bir vaqtda 4 xil tolani aloxida-aloxida titib uzatish imkoniyatiga ega.

BLENDOMAT BO-A rusumli avtomatik toy titgichning texnologik ko'rsatkichlari

8 -jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1720/2300
2	Balandligi	mm	2900
3	Toyning mak. balandligi	mm	1700
4	Mashinaning min.eni	mm	5164
5	Mashinaning mak.eni	mm	6320
6	Mashinaning min. uzunligi	mm	10670
7	Mashinaning mak. uzunligi	mm	50270
8	Elektr energiya sarfi	kvt	10,6/12,6
9	Mak. ish unumdorligi	Kg/s	1500/2000
10	Mak.toylar soni	dona	150
11	Qabul qildim mak.toylar soni	dona	84
12	Mashinaning mak. uzunligi	mm	30470

Ko'p funktsiyali ajratkich (separator) SP-MF

Ko'p funktsiyali ajratkich (separator) SP-MF - tuzilishi jihatidan judda ixcham, paxta tolasidagi og'ir jismlar, metall bo'lakchalarini, begona jismlarni va mayda chiqindilardan tozalash uchun hamda agregat tarkibidagi boshqa mashinalardagi nozozliklarning oldini olish uchun xizmat qiladi.

SP-MF rusumli dastlabki tituvchi tozalovchi mashnasining texnologik ko'rsatkichlari

9-jadval

No	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1000
2	Balandligi	mm	4140
3	Mashinaning eni	mm	1664
4	Mashinaning uzunligi	mm	4485
5	Elektr energiya sarfi	kvt	9
6	Mak. ish unumdorligi	Kg/s	2000

6 kamerali tola aralashtirgich MX-1

Trutzschler firmasining tolalarni aralashtiruvchi mashina MX-1 modeli tozalangan tolalarni samarali aralashtirish uchun xizmat qiladi. Bu mashina SP-MF rusumli tozalash sistemasidan keyin agregatda o'rnatiladi. MX-1 mashinasi yuqori aralashtirish samaradorligiga ega. Tolalar kanal orqali havo oqimi bilan ilgarilanma harakat qilib shaxtalarga o'tadi. Ajratuvchi tsilindrlar yordamida tola turli uzunlikdagi oltita kameraga tushadi. Kameralardagi tolalar konveyer yordamida yon tomonga surilish oqibatida 90 gradusga burilib ustma-ust taxlangan qatlamlar ko'rinishiga keladi va zichlanadi. Yo'naltiruvchi valiklar mahsulotni bir tekisda harakatlanishini va ignali panjara bilan tartibli ravishda vertikal bo'yicha ilib olinishini ta'minlaydi. Ignali panjarada tolani qo'shimcha titishni amalga oshirish uchun tekislovchi baraban, ajratuvchi baraban o'rnatilgan. Baraban tolalarni chiqarish koni uzatib beradi. Aralashtirish kamerasida yuzaga kelgan chang va momiq kanal orqali surib olinadi va fil trga yuboriladi. Kamerali aralashtiruvchi mashinalari MX-1

Tartibli va maksadli tolalarni aralashtirish uchun birinchi navbatda kamerali aralashtirgichlar tugri keladi. Bu yerda bunkerlar ketma-ket tuldiriladi va birdagina bushatiladi. Bu printsip maksimal xolatda maxsulotning bir xil aralashini ta'minlaydi. Kuyilgan vazifaga karab kamerali aralashtirgichlar 6ti va 10 kamerali bulishi mumkin. Agarda aralashmaga yukori talab kuyilgan bulsa unda ketma ket ikta aralashtirgich urnatilishi mumkin. Bunday kamerali aralashtirgichlarni urnatilishi **tamden aralashtirish** deyiladi.

Ikki xil variantagi yukori ish unumdorli aralashtirgichlar:

- integrashgan aralashtirgich MX-1-tozalovchi yoki tituvchi bilan agregatlashgan va aralashtiruvchi.
- universal aralashtiruvchi MX-U-keyingi mashina bilan maxsulotni tortib olish-ikta paralel tozalovchini ta'minlashning ideal yechimi.

10-jadval

mashina	MX- U6	MX- U10	MX- 1 6	MX-1 10
Bunkerlar soni	6	10	6	10
Bunkerlar eni,mm	1600	1600	1600	1600
Bunker chukurligi,mm	500	500	500	500
Kengligi,mm	2264	2264	2264	2264
Uzunligi ,mm	5500	7500	4633	6632
Balandligi,mm	4040	4040	4500	4500
Urnatilgan kuvvat,kvt	4,1	5,6	4,8	6,3
Ishlatiladigan kuvvat	3,0	4,0	3,5	4,5
Maks. ish unumdorligi. Kg/soat	Keyingi mashinaga boglik			
Maks. yuklanish ogirligi, kg	500	875	400	700

Ta'minlovchi tortuvchi BL-HW

Yukori ish unumdorlikga ega torazili ta'minlagich BL-HW avtomatik xolda pnevmatik ta'minlanadi.

11-jadval

No	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1600
2	Balandligi	mm	4000
3	Mashinaning eni	mm	2064
4	Mashinaning uzunligi	mm	1734
5	Elektr energiya sarfi	kvt	3,2
6	Mak. ish unumdorligi	Kg/s	400

Tola tituvchi TUFTOMAT TO-T 1

Universal tituvchi TO- U tola uzunligi 130 mm gacha bulgan turli tolalarni titish uchun muljanlangan. Turli maxsulotlar uchun uchta turli barabandan iborat.

TUFTOMAT TO-T1-kichik uzunlikdagi turli kimyoviy tolalar uchun.

12-jadval

No	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1600

2	Balandligi	mm	4280
3	Mashinaning eni	mm	2264
4	Mashinaning uzunligi	mm	2165
5	Elektr energiya sarfi	kvt	6,0
6	Mak. ish unumdorligi	Kg/s	1000

Chiqindi va qaytimlarni qayta ishlash BO-R

Bu mashina tarash va piltalash jarayonlardan chikgan kaytimlarni kayta ishlab beradi. Buning uchun unda tarovchi panjara, yulduz shakilli va ajratuvchi valiklar mavjud.

13-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1000
2	Balandligi	mm	2250
3	Mashinaning eni	mm	1464
4	Mashinaning uzunligi	mm	5265
5	Elektr energiya sarfi	kvt	2,9
6	Mak. ish unumdorligi	Kg/s	300

TS 11S rusumli Trutzschler firmasining tarash mashinasi.

Tozalash jarayonidan so'ng paxta tolasini nuqsonlardan tozalashning ohirgi boskichi TS 11S rusumli tarash mashinalarida amalga oshirildi. Trutzschler firmasi yangi TS 11S rusumli tarash mashinasini yaratdi. Mashinada shuningdek tarash zonasi uzaytirilganligi, oraliq masofalarni rostlash va nazorat qilish kabi bir qator yangi yechimlar joriy etilgan. DIRECTFEED taminlovchi bunkeri bu TS-11S mashinasi ajralmas kismidir. Ta'minlovchini chikaruvchi valiklari va tarash mashinasining taminlash valiklari uxshash. Shuning uchun notugri yoki optimal bulmagan rostlash xam kushimcha shuchishga olib kelmaydi.

DIRECTFEEDda sinab kurilgan ikki shaxtali printsip kulaniladi. Birinchi shaxta kattarak bulib unda rezerv maxsulot joylashadi, pastki shaxta maxsus geometrik formada bulib piltani parametrlarini ta`minlaydi.

Shunday qurilma va mexanizmlarni qo'llanilishi hisobiga TS 11S tarash mashinasining unumdorligini yanada oshirish imkonyatlari yaratildi.

TS 11S rusumli Trutzschler firmasi tarash mashnasining texnologik ko'rsatkichlari

14 jadval

№		O'lchov birligi	Qiymati
1	Chiqarish tezligi	m/min	600
2	Tola uzunligi, gacha	mm	60
3	Mak. ish unumdorligi	Kg/s	260
4	Piltaning chiziqli zichligi	kteks	moslanadi
Tozlar			
6	Tozlarning diametri	mm	450-1000
7	Tozlarning balandligi	mm	900-1500
8	To'g'ri to'rtburchakli tazning eni	mm	220 x920
9	To'g'ri to'rtburchakli tazning balandligi	mm	1070 va 1200
10	Umumiy cho'zilish qiymati	E	moslanadi
11	Elektr energiya sarfi	kvt	7,2Q2,7
12	Piltalarning qo'shilishlar soni	dona	6-8
13	Tozlarning diametrini qabul qildim	mm	1000
14	Tozlarning balandligi	mm	1200
15	Toz taxlagichning eni	mm	2800
16	Toz taxlagichning uzunligi	mm	3343
17	Mashinaning eni	mm	2150
18	Balandligi	mm	3305
19	Mashinaning uzunligi	mm	3570
Pilta taxlovchi moslama			
20	Moslama eni	mm	2750
21	Moslama uzunligi	mm	2350

TD-7 AUTO DRAFTsiz vaTD-8- AUTO DRAFT rusumli «Trutzschler» firmasining pitalash mashnasi.

Tarash mashinasidan olingan piltani yigirishga tayyorlash uchun qo'llaniladigan zamonaviy pilta mashinalari ham yuqori unumdorlikka ega bo'lib,

mahsulotning sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Bu mashinalarda tolalarni nuqsonlardan tozalab, uzunligi bo'yicha to'g'rilab, bir hil yo'g'onlikda pilta yarim mahsuloti hosil qilib olinadi.

TD-7 AUTO DRAFTsiz va TD-8- AUTO DRAFT rusumli «Trutzschler» firmasi
piltalash mashinasining texnologik ko'rsatkichlari

15-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati	
			TD-7 AUTO DRAFTsiz	TD-8 AUTO DRAFT
1	Chiqarish tezligi	m/min	1000	1000
2	Tola uzunligi, gacha	mm	60	60
3	Mak. ish unumdorligi	Kg/s	300	300
4	Ta'minlanayotgan piltaning chiziqli zichligi	kteks	15-50	15-50
5	Chiqayotgan piltaning chiziqli zichligi	kteks	3.5-7	3.5-7
6	Cho'zish asbobi rusumi		4x3	4x3
Tozlar				
	Tozlarning diametri	mm	400-1000	400-1000
7	Tozlarning balandligi	mm	1050-1500	1050-1500
8	To'g'ri to'rtburchakli tazning eni	mm	920x220 1230x250	920x220 1230x250
9	To'g'ri to'rtburchakli tazning balandligi	mm	1075 1300	1075 1300
10	Umumiy cho'zilish qiymati	E	4-11	4-11
Elektr energiya sarfi				
11	Tozlar diametri 1000 mm bo'lganda	kvt	9,9+1,1	8,7+0,78
12	To'g'ri to'rtburchakli taz		9,9+3,45	8,7+4,78
13	Piltalarning qo'shilishlar soni	dona	6-8	6-8
14	Mashinaning eni	mm	2763	2763
15	Balandligi	mm	2000	2000
16	Mashinaning uzunligi	mm	7461	9449

«Rieter» firmasining Roving frame F 35 rusumli
piliklash mashinasi

«Rieter» firmasi eng zamonaviy pilik mashinalarini ishlab chiqarmokda.

Piliklash mashinalari xizmat ko'rsatish uchun qulay va yuqori unumdorlikka ega. Ularda boshqarish qurilmasi bir nechta joyda ta'minlash va chiqarish zonalarida o'rnatilgan. Bu vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini beradi.

Ta'minlash qurilmasi tayanchsiz-konsol tilida bo'lib tozni balandligiga mos ravishda mashinadagi stoykadan qo'zg'atilishi mumkin. Yo'naltiruvchi valiklar sun'iy materiallardan tayyorlangan va ular sharikli podshibniklar o'rnatilgan vallar bilan majburiy harakatlantiriladi. U o'z navbatida piltalarni cho'zilib qolishini oldini oladi.

Mashinada kiritilayotgan piltalarni nazorat qilish qurilmasi o'rnatilgan bo'lib, ular pilta uzilganda yorug'lik klapanlari yordamida mashinani tuxtatadi. Pilik uzilganda elektr kontakt sistemasi mashinani tuxtatadi. Bunda avtomatik sistema mahsulot chiqindilari kamayishini va sifatni yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqori quvvatli pnevmatik tortib olish sistemasi cho'zish va chiqarish zonalarini tozalashni ta'minlaydi. Bu sistema pilikni uzilishini nazorat qilish qurilmasi bilan bog'langan. Sistema michka tutish tsilindri va valiklarni tozalash moslamalari orqali momiqni to'plab oladi.

Roving frame F 35 rusumli «Rieter» firmasi piliklash mashinasining texnologik
ko'rsatkichlari.

16-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati	
			F15	F 35
1	Xom ashyo turi		Paxta, kimyoviy tola	
2	Tola uzunligi	mm	60	60
3	Pilikning chiziqli zichligi	teks	170-1450	170-1450
4	Umumiy cho'zish qiymati	E	4-20	4-20

5	Urchuqlar orasidagi masofa	mm	110	130	110	130
6	Bitta seksiyadagi urchuqlar soni		16	12	16	12
7	Jami mashinadagi urchuqlar soni		160	144	160	144
8	Urchuqning aylanishlar soni	Ayl/min	1500		1500	
9	Chiqarish tezligi	m/min	50		50	
10	1 m mahsulotdagi buramlar soni	Bur/m	17-96		17-96	
11	Mashinaning eni	mm	1935		2248	
12	Balandligi	mm	2320		2320	
13	Mashinaning uzunligi	mm	19890		20960	

«Rieter» firmasining G-35 rusumli xalqali ip yigirish mashinasi

Xalqali yigiruv mashinalarida pilikdan ip olinadi. Shunga ko'ra yigirish texnologik jarayonining maqsadi pilikni cho'zib ingichkalashtirish va belgilangan xossalarga ega bo'lgan ip hosil qilishdan iborat.

Ip hosil bo'lish tartibi quyidagicha:

- pilik yigiruv mashinalarining cho'zish asboblari cho'ziladi;
- cho'zish asbobidan chiqayotgan michkani pishitib ipga aylantirish.
- tayyor ipni naycha (pochatka) shaklida o'rash.

